



O'ZBEKISTON VA YAPONIYA KONSITUTSIYASIDA DAVLAT BOSHQARUV SHAKLI TUSHUNCHASI

Murodxonov Muhammadnur

*Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti, 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston va Yaponiya konstitutsiyalarida davlat boshqaruv shakli tushunchasining mazmuni, ularning huquqiy asoslari hamda siyosiy-huquqiy model sifatidagi o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Har ikki davlatning tarixiy rivojlanishi, siyosiy tizimi va konstitutsiyaviy tamoyillari asosida boshqaruv shaklining shakllanishi, davlat organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti hamda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi yoritiladi. Tadqiqotda O'zbekistonning prezidentlik respublikasi sifatidagi modeli va Yaponiyaning konstitutsion monarxiya ko'rinishidagi boshqaruv tizimi qiyosiy-huquqiy metod asosida solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari, ustunlik va kamchiliklari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Maqola yakunida har ikki mamlakat konstitutsiyaviy boshqaruv shaklining samaradorligi va zamonaviy davlat boshqaruvi talablari nuqtayi nazaridan xulosalar va takliflar beriladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston Respublikasi, konsitutsiya, davlatchilik, konsitutsiya, xalqaro huquq*

KIRISH

Davlat boshqaruv shakli har bir davlatning siyosiy tizimi, tarixiy rivojlanishi va konstitutsiyaviy qadriyatlarini ifodalovchi eng muhim kategoriyalardan biridir. Davlat boshqaruvi mamlakatning irodasi va uning ruhini ifodalovchi muhim omil hamdir. U davlat hokimiyatining qanday tashkil etilishi, oliy davlat organlarining o'zaro munosabati, ularning vakolatlari va mas'uliyati kabi fundamental masalalarni belgilab beradi. Shu bois boshqaruv shaklini o'rganish davlat tuzilishining mohiyatini anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Har bir mustaqil siyosiy birlik o'zaro aloqaga kirishish jarayonida aynan uning davlat boshqaruvi alohida muhim jihat sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston va Yaponiya dunyoning ikki xil mintaqasida joylashgan bo'lsa-da, ularning konstitutsiyaviy boshqaruv tizimi o'ziga xos modelga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prezidentlik respublikasi shakli mustahkamlangan bo'lib, davlat boshlig'i sifatida Prezidentning vakolatlari, ijroiya hokimiyati tizimi hamda parlamentning o'rni aniq belgilangan. Yaponiya esa konstitutsion monarxiya shaklida faoliyat yuritadi. Bunda imperator davlat ramzi sifatida tan olinadi, amaldagi siyosiy boshqaruv esa parlament demokratiyasi tamoyillariga tayangan holda Vazirlar Mahkamasiga yuklangan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi globallashtirish jarayonida turli boshqaruv modellarining samaradorligini tahlil qilish, demokratik institutlarni takomillashtirish



va konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida xorij tajribasidan oqilona foydalanish zarurati bilan bog'liqdir.

Shuningdek, O'zbekistonda oxirgi yillarda olib borilayotgan konstitutsiyaviy va institutsional islohotlar davlat boshqaruvi masalasini qayta tahlil qilish ehtiyojini yanada oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada O'zbekiston va Yaponiya konstitutsiyalarida davlat boshqaruv shaklining huquqiy asoslari, ularning mohiyati va amaliyotdagi namoyon bo'lishi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Hozirgi globallashuv zamonida aynan, ikki xil xarakterdagi muhim konsitutsiyalarni o'rganish va undan nozik jihatlarni tahlil qilish kelajak uchun nodir bilim sifatida ko'riladi.

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruv shakli davlatning yuqori hokimiyat organlari tizimi, ularning vakolatlari, o'zaro munosabatlari va shakllanish tartibi orqali namoyon bo'ladigan siyosiy tizimning asosiy unsurlaridan biridir. Huquqiy adabiyotda davlat boshqaruv shakli ko'pincha "davlat organlarining tuzilishi va ular o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti" sifatida talqin qilinadi¹³. Ushbu tushuncha respublika va monarxiya shakllariga bo'linadi, respublikalarda esa prezidentlik, parlament, aralash boshqaruv tizimlari mavjud.

O'zbekiston va Yaponiya konstitutsiyalari mazmunan turli tarixiy, siyosiy an'analarga ega bo'lsa-da, ikkala davlat ham o'z siyosiy tizimida demokratik tamoyillarni umumiy qadriyat sifatida belgilagan. Shunga qaramay, davlat boshqaruv shaklida ular o'rtasida tub farqlar mavjud: O'zbekiston – prezidentlik respublikasi, Yaponiya esa – konstitutsiyaviy monarxiya bo'lib, ijro hokimiyati strukturasi va vakolatlarning taqsimlanishida sezilarli farqlar kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasining eng oliy yuridik qonunchiligi bo'lmish Konsitutsiyada aynan O'zbekistonning davlat boshqaruv shakli belgilab o'tilgan. Hozirgi amaliy nuqtayi nazardan, davlat boshlig'i sifatida prezidentlik lavozimi dunyoda keng tarqalgan boshqaruv shakli hisoblanadi. Shu bilan birga, turli davlatlar-da prezidentning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni va mavqeyi har xil. Prezidentlik institutiga xos umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda turli davlatlar prezidentlik hokimiyatining o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Prezidentlikning umumiy xususiyatlari shundaki, ular faqat respublika boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlatlarga xos bo'lib, prezident saylov asosida saylanadi. Biroq farqlar ularning maqomi, vazifalari va vakolat muddatlarida o'z ifodasini topadi.

Prezidentning huquqiy maqomi uni saylash usullariga (fuqarolar, vakillik organi yoki maxsus organlar), vakolatlariga (faqat davlat boshlig'i yoki davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organi boshlig'i) va Prezidentning davlat hokimiyati tizimidagi rolini tartibga soluvchi boshqa mezonlarga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin¹⁴.

Shu nuqtayi nazardan, aynan prezidentlik modeli O'zbekistonda qabul qilindi va

¹³ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 78 B.

¹⁴ Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: Darslik / Mualliflar jamoasi.- T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 563 B.



prezidentlik lavozimini joriy etish to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'z aksini topdi. Shunday qilib, O'zbekistonda prezidentlik lavozimini joriy etish huquqiy davlatchilikni, hokimiyatlarning bolinishi prinsipini rivojlantirishda, davlatchilik tuzilmalarini muvofiqlashtirish va barqarorlashtirishda eng muhim va zarur qadamlardan biri bo'ldi. Dunyodagi barcha rivojlangan demokratik huquqiy davlatlarda davlat boshlig'ining maqomi Konstitutsiya va u asosida qabul qilinadigan qonunlarda aniq belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar bilan bir qatorda yangilangan. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston "suveren demokratik respublika" sifatida e'lon qilinadi. Konstitutsiyaning 89–98-moddalarida Prezident — davlat boshlig'i va ijroiya hokimiyatining eng muhim bo'g'ini sifatida belgilangan.

Prezidentning asosiy vakolatlari quyidagilar:

- davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash (Konstitutsiya, 93-modda),
- Bosh vazirni taqdim etish va tayinlash jarayonida hal qiluvchi rol o'ynash,
- parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarni imzolash yoki qaytarish,
- Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh Qo'mondoni bo'lish.

Bu jihatlar O'zbekiston boshqaruv shaklini aniq prezidentlik respublikasi sifatida ifodalaydi. O'zbekistonda ijro hokimiyati Prezident va Vazirlar Mahkamasidan iborat bo'lib, Konstitutsiyaning 98-moddasiga ko'ra Bosh vazir parlament tomonidan tasdiqlanadi, ammo Prezidentning taqdimiga ko'ra. Bu esa ijro hokimiyatida Prezidentning ustuvor rolini saqlab qoladi.

O'zbekiston parlamenti — Oliy Majlis — ikki palatali: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Parlament Prezidentdan mustaqil ravishda qonun chiqarish vakolatiga ega bo'lsa ham, oliy davlat mansabdorlari tayinlanishida Prezident bilan o'zaro muvozanat mexanizmlari mavjud. Masalan, Markaziy bank raisi Prezident tomonidan taqdim qilinadi va parlament tomonidan tasdiqlanadi.

Sud hokimiyati Konstitutsiyaning 106–112-moddalarida bayon etilgan. Sudlar mustaqilligi ta'kidlangan bo'lsa-da, sud raislarini tayinlashda Prezidentning roli mavjudligi sababli hokimiyatlar bo'linishi to'liq mustaqillik darajasiga to'liq erishmaganligi ayrim olimlar tomonidan qayd etila¹⁵.

Hokimiyatlarning bo'linishi prinsipiga mantiqan mos ravishda tuzilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hokimiyatlarning o'zaro hamkorligini ta'minlash vazifasi Prezident zimmasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat hokimiyati organlari tizimidagi o'ziga xos alohida o'rni shu bilan izohlanadi. Prezident har qanday davlat hokimiyati tarmoqlaridan xoli, ularning birortasi tarkibiga kirmaydi, shunday ekan, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi unga ta'sir qilmaydi, lekin shu prinsipning amal qilishini ta'minlaydi.

Aynan, prezidentning ta'siridagi muhim rol o'ynashi uning aynan hech qaysi hokimiyatga bo'ysunmasligi bilan ifodalanishi ekanligi ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston

¹⁵ Husanov O. Konstitutsiyaviy huquq. 2020.-240 B.



Respublikasining Konsitutsiyasining 1-moddasidan boshlab aynan, O'zbekistonning siyosiy-huquqiy shakllanishi asosiy 5 ustunga qurilganligi namoyon qilindi. Bunga ko'ra, "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"¹⁶ ekanligi qayd etildi. Demak, aynan ushbu moddaning o'zidan ayon bo'ladi-ki, O'zbekistonning davlat boshqaruvi aynan Prezidentlik shaklidagi davlat boshqaruvi yo'lga qo'yilganligi, boshqaruv uslubi sifatida demokratik tamoyil yo'lga qo'yilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asosiy jihati sifatida aynan, davlat boshqaruvida yakkaboshchilikka asoslanganligi, siyosiy irodasini namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Aymiqsa, qiyosiy konsitutsiyaviy huquq asosida tahlil qilganimizda, davlatning boshqaruvi muhim ekanligi bilan qayd etiladi. Har bir mamlakatga ta'rif berilayotganda aynan uning boshqaruv shakli, boshqaruv roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya davlatining huquqiy-siyosiy nuqtayi nazardan davlat boshqaruvi shaklini tahlil qilib borar ekanmiz, aynan konsitutsiyasiga ta'rif berishdan boshlahsimiz lozim.

Yaponiya 1947-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra konstitutsiyaviy monarxiya hisoblanadi. Konstitutsiyaning 1-moddasida Imperator — "Davlatning ramzi va xalq birlik ramzi" sifatida belgilangan. Imperatorning siyosiy vakolatlari deyarli yo'q, u faqat marosimiy vazifalarni bajaradi.

Yaponiyada parlament "Kokkay" eng oliy davlat organi hisoblanadi (Konstitutsiya, 41-modda). Kokkay ikki palatali: vakillar palatasi va maslahatchilar palatasi. Qonun chiqarish vakolatlari to'liq parlamentga tegishli bo'lib, ijro hokimiyatiga kuchli nazorat mavjud. Konstitutsiyaning 65-moddasiga ko'ra, ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Bosh vazir parlament tomonidan saylanadi va faqat unga hisobdor. Imperator tomonidan Bosh vazir tayinlanadi, lekin bu faqat marosimiy tasdiqlash sanaladi.

Bosh vazir:

- Vazirlar Mahkamasini boshqaradi,
- hukumat siyosati yo'nalishini belgilaydi,
- parlament tomonidan ishonchsizlik ovozi berilganida iste'foga chiqadi yoki palatani tarqatib yuboradi. Sud tizimi mustaqil bo'lib, Oliy sud sud hokimiyatining eng yuqori organidir. Sudyalar "huquqiy ong va vijdon asosida" ish ko'rishi kerak¹⁷.

TAHLIL

Yaponiyada boshqaruv shakli Ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh siyosiy islohoti ta'sirida shakllandi. O'zbekiston esa mustaqillikdan so'ng sobiq sovet boshqaruv tizimidan demokratik boshqaruv tizimiga o'tdi. Shu bois, ikki davlatning siyosiy tizimlari turli manbalarga ega: Yaponiyada parlament boshqaruvi tarixiy va tashqi islohotlar natijasi bo'lsa, O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi mustaqil davlat qurilishining zarur yo'li sifatida tanlandi. O'zbekiston – Prezident davlat boshlig'i, real ijro hokimiyati rahbari va siyosiy qarorlarning asosiy tashabbuskori. Yaponiya –

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi 2023-yil tahrir, to'liq matn uchun: <https://lex.uz/docs/-6445145>

¹⁷ Yaponiya Konstitutsiyasi, to'liq matn uchun: https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html 76-modda.



Imperator davlat ramzi, siyosiy vakolatlarsiz. Real ijro hokimiyati Bosh vazir qo'lida.

Bu farq siyosiy tizimning markaziyashtirilgan yoki parlamentga yo'naltirilganligiga bog'liq. O'zbekistonda ijro hokimiyati Prezident qo'lida jamlangan bo'lib, parlament va sud tizimi bilan o'zaro muvozanat saqlansa-da, kuch markazida Prezident turadi. Yaponiyada esa ijro hokimiyati Vazirlar Mahkamasi qo'lida bo'lib, parlament unga bevosita nazorat o'rnatadi. Bu jihatdan Yaponiyada hokimiyatlar bo'linishi o'ziga xos ravishda aniq va mustahkam bo'lishi mumkin ekanligini ifoda etadi.

O'zbekistonda Bosh vazirni Prezident nomzod sifatida taqdim etadi, parlament tasdiqlaydi. Yaponiyada Bosh vazirni parlamentning o'zi saylaydi, hukumat shu parlamentga hisobot beradi. Demak, O'zbekiston aralash tizimga yaqinlashadi, Yaponiyada esa sof parlamentar tizim hukmron.

Yaponiyada parlament ustuvorligi Konstitutsiyada bevosita belgilangan. O'zbekistonda parlament mustaqil bo'lsa-da, ijro hokimiyati bilan o'zaro hamkorlik ko'proq vertikal tizimga ega. Bunda Prezidentning e'tiroz instituti, tayinlov vakolatlari parlament mavqeiga ta'sir qiladi. Har ikki davlatda sud hokimiyati mustaqilligi konstitutsiyaviy jihatdan belgilangan. Yaponiyada sud tizimi siyosiy hokimiyatdan ancha mustaqildir. O'zbekistonda so'nggi yillarda sud islohotlari olib borilgan bo'lsa-da, sud kadrlarini tayinlashdagi ijro hokimiyati ta'siri hali ham seziladi. Yaponiyada hukumat tez-tez o'zgarishi mumkin, bu parlament tizimiga xos moslashuvchanlikni ko'rsatadi. O'zbekistonda esa siyosiy barqarorlik kuchli prezidentlik instituti orqali ta'minlangan. O'zbekistonning siyosiy tizimi barqarorlikni ta'minlayotgan bo'lsa-da, demokratik rivojlanish nuqtayi nazaridan quyidagi tajribalar o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq ekanligi namoyon bo'ladi.

XULOSA

O'zbekiston va Yaponiya konstitutsiyalarida davlat boshqaruv shakli tub farqlarga ega bo'lib, bu farqlar tarixiy, siyosiy va huquqiy omillar bilan belgilanadi. O'zbekiston prezidentlik respublikasi sifatida markazlashgan ijro hokimiyatiga tayanadi, Yaponiya esa konstitutsiyaviy monarxiyaga asoslangan parlament boshqaruvini amalga oshiradi. Hokimiyatlar bo'linishi tamoyili Yaponiyada yanada aniqroq va qat'iyroq ko'rinishga ega, O'zbekistonda esa ijro hokimiyatining ustuvorligi seziladi.

Shunga qaramay, har ikkala tizim ham demokratik qadriyatlarni tan oladi va ularni mustahkamlashga intiladi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning davlat boshqaruv tizimi takomillashtirish jarayonida Yaponiyaning parlament nazorati, sud mustaqilligi va siyosiy moslashuvchanlikka oid tajribalaridan samarali foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, har bir davlatning o'ziga xos siyosiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlari e'tiborga olinishi shart. Xulosalash barobarida aynan, qo'shimcha takliflarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deyish mumkin. O'zbekiston parlamentining ijro hokimiyatiga nisbatan nazorat vakolatlarini kuchaytirish, xususan Vazirlar Mahkamasining hisobot berish mexanizmlarini Yaponiyadagi kabi muntazam va majburiy tartibga keltirish demokratik boshqaruv sifatini oshiradi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashda Yaponiyaning sudyalarni tayinlash va ularni baholash



tizimini o'zlashtirish, ijro hokimiyatining sud tizimiga aralashuvini yanada cheklash lozim. Siyosiy partiyalar faoliyatini kuchaytirish, hukumat shakllanishida parlament partiyalarining ta'sirini oshirish orqali siyosiy tizimni bosqichma-bosqich parlamentar boshqaruvga yaqinlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. Japan Constitution (1947) - Government of Japan, National Diet Library Digital Archive.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
4. Husanov O. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2020.
5. H. Tanaka. The Constitution of Japan: A Contextual Analysis. Oxford University Press, 2018.
6. Hook, G., McCormack, G. Japan's Contemporary Politics. Routledge, 2011.
7. Azizxo'jayev A. O'zbekiston davlat boshqaruv tizimi islohotlari. Toshkent, 2021.
8. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: Darslik / Mualliflar jamoasi.- T.: TDYU nashriyoti, 2024.